TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METOD, INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Olimova Dilnoza Murodulla qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Ismoilova Bahor Eshdavlat qizi

Termiz davlat pedagogika insituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ta’lim olish jarayonida tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda amaliy va nazariy asoslari tahlil qilindi hamda rivojlantirishda interfaol metodlar, raqamli ta’lim vositalari, ilmiy loyihalar asosida o‘qitish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berildi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda talabalarning tafakkurini rivojlantirish va faollashtirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati hamda sun’iy intellekt vositalarining inson hayotidagi o‘rni ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, raqamli ta’lim asoslari, mantiqiy fikrlash, aqliy hujum, interfaol ta‘lim, tanqidiy tafakkur, sun‘iy intellekt vositalari.

Аннотация: В данной статье анализируются практические и теоретические основы формирования компетенций критического мышления у студентов в процессе обучения в высших учебных заведениях, а также

освещаются специфические особенности системы обучения, основанной на интерактивных методах, цифровых образовательных инструментах и научных проектах, в их развитии. Одновременно рассматривается важность педагогических технологий в развитии и активизации мышления студентов с использованием современных педагогических технологий и роль инструментов искусственного интеллекта в жизни человека.

Ключевые слова: критическое мышление, интерактивные методы, основы цифрового образования, логическое мышление, мозговой штурм, интерактивное образование, критическое мышление, инструменты искусственного интеллекта.

Abstract: This article analyzes the practical and theoretical foundations of the formation of critical thinking competencies of students in the process of education in higher educational institutions, and highlights the specific features of the teaching system based on interactive methods, digital educational tools, and scientific projects in their development. At the same time, the importance of pedagogical technologies in the development and activation of students' thinking using modern pedagogical technologies and the role of artificial intelligence tools in human life are considered.

Keywords: critical thinking, interactive methods, digital education fundamentals, logical thinking, brainstorming, interactive education, critical thinking, artificial intelligence tools.

Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish va mazmunini yangilash jarayoni har bir oliy ta’lim muassasasining asosiy, ustuvor vazifasi hisoblanadi. Talabaning fikrlashi faqatgina ma’lumotlarni yodlash yoki eslab qolish bilan chegaralanmay, balki uni tahlil qila bilish, qayta ishlash, taqqoslash hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati bilan baholanmoqda. “Tanqidiy fikrlash” deb yuritiladigan mazkur kompetensiya

bugungi kunda hayotimizda nafaqat ilmiy izlanishlar, balki kundalik faoliyat uchun ham zarur bo‘lib qoldi. Shu sababli interfaol o‘qitish usullari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish talabalarning intellektual salohiyatini, fikrlash doirasini oshirishning eng samarali va asosli usullaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash tushunchasining mazmuni va mohiyati haqida gapiradigan bo‘lsak, ushbu jarayon insonning o‘z qarashlarini ma’lum bir voqea-hodisaga nisbatan munosabatini aniq dalillarga tayanib asoslash, yangicha yondashuvlar ishlab chiqish, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish, asossiz ma’lumotlarni fikrlash qobiliyati orqali ajrata bilish va oqilona xulosa chiqa olishdir.

Yuqorida aytib o‘tilgan mezonlarga misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: ma’lum bir axborotni tanlab olish hamda uni asosli ravishda, o‘z imkoniyatlari ya‘ni fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda baholash; axborotning yoki voqea-hodisaning kelib chiqish sabablari va oqibat munosabatlarini aniqlash; mavjud fikrlarni tekshirish, ma’lumotga yoki g‘oyalarni chuqur tahlil qilib, ilmiy hamda hayotiy jihatdan yondashib, tasdiqlash yoki inkor etish; inson ongining asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lgan mantiqiy fikrlash rivojlantirish va ma’lumotlar zanjirini to‘g‘ri bog‘lay olish. Ushbu tarkibni amalda qo‘llash, tanqidiy fikrlashni shakllantirish oddiy ma’ruza darslari yoki an’anaviy o‘qitish shakllari bilan cheklanib qolmaydi. Bunda talabaning fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqaradigan interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol metodlarning o‘quv jarayonidagi roli haqida gapirishdan oldin interfaol ta‘lim o‘zi nima? degan savolga javob berishimiz maqsadga muvofiqdir. Interfaol ta’lim – bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi faol hamkorlikka, muloqot va munosabatga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Bu jarayonda talaba passiv tinglovchi emas, aksincha faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Interfaol metodlarning tanqidiy fikrlashga ta’sirini quyidagilardan foydalangan holda asoslab o‘tamiz.

Masalan, aqliy hujum jarayonida g‘oya ishlab chiqish metodini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ushbu jarayonda talabalar muammoni turli tomondan, tahlil qilib, qisqa muddat ichida ko‘plab yechimlar taklif qilishlari kerak bo‘ladi. Vaziyatga to‘g‘ri yondashish va baholash ularning mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Shuningdek, guruhlar o‘rtasida fikr almashish, takliflar kiritish, o‘z e’tirozlarini bildirish, shaxsiy fikrlarini asoslab bera olish – tanqidiy tafakkurning eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hayotiy vaziyatlar bilan ishlash esa talabaning kasbiy fikrlash doirasini kengaytiradi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini oshiradi. Mashg‘ulot va topshiriqlar yakunlangandan so‘ng talaba o‘ziga shunday savollar berishi lozim: “Nimalarni tahlil qildim?”, “Nimalarni o‘rgandim?”, “Nima sababdan bu xulosaga keldim?”. Ushbu mazmundagi savollar tanqidiy tahlilni mustahkamlaydi.

Zamonaviy ta’lim jarayoni raqamlashtirilayotgan bir paytda innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonining muhim qismi bo‘lib qoldi. Raqamli ta‘lim platformalari qatorida Google Classroom, Moodle, Zoom, Kahoot kabi tizimlar talabaning o‘quv jarayonini yanada faollashtiradi. Testlar, interaktiv mashqlar, videodarslar – bularning barchasi talabaning mustaqil fikrlashiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda xalqimiz orasida sun‘iy intellekt vositalari ommalashib ketdi. ChatGPT, Gemini, AI kabi paltforma hamda ilovalar yordamida axborotni tahlil qilish, kerakli ma‘lumotlar olish, muammoga alternativ yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalari shakllanadi.Bunday yondashuv talabaning fikrlash doirasini kengaytiradi, axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantiradi. Biroq, tanganing ikkinchi tomoni ham bor deyishganlaridek, ushbu sun‘iy intellekt vositalaridan foydalanib ba‘zi yoshlar mustaqil fikrlashdan, izlanishlardan ma‘lum darajada uzoqlashdilar

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tanqidiy fikrlash zamonaviy ta’limda muhim va asosiy ahamiyat kasb etadi. Uni shakllantirish interfaol metodlarni muntazam qo‘llashni, innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonida to‘liq holda tatbiq etishni talab qiladi. Bugungi talabalar uchun tayyor bilimdan ko‘ra, o‘z fikrini izlab topish, dalillar bilan asoslash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalari muhim. Interfaol ta’lim va innovatsion texnologiyalar esa aynan shu kompetensiyalarni samarali rivojlantiradigan vositalardir. Shunday ekan, oliy ta’lim tizimi bu yondashuvni izchil, tizimli va uzluksiz ravishda tatbiq etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.”PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT” H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov Toshkent «IQTISOD-MOLIYA»

200974.204

2.“PEDAGOGIKA NAZARIYASI”X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva

TOSHKENT-2008

3. arxiv.uz “Tanqidiy fikrlashni o‘stiruvchi faol metodlar”

4. cyberleninka.ru INTERAKTIV METODLAR ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH